

INGLIZ TILIDAGI SO'ZLARNING YOZILISHI VA TALAFFUZI O'RTASIDAGI NOMUVOFIQLIK SABABLARI

Komiljonova Nodiraxon

Qo'qon Universiteti Andijon filiali

Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) 25_08 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18505336>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilidagi so'zlar nima uchun yozilganidek o'qilmasligi haqida so'z yuritiladi. Ingliz tilini o'rganayotganlar bu holat sababli ko'pincha qiyinchilikka duch keladilar. Maqolada yozuv va talaffuz o'rtasidagi farq oddiy misollar orqali tushuntiriladi. Bu maqola ingliz tilini o'rganayotganlarga talaffuzni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: ingliz tili, talaffuz, yozuv, fonetika, tovushlar

Kirish: Bugungi kunda ingliz tili dunyodagi eng keng tarqalgan tillardan biri hisoblanadi. Bu til ta'limda, ish faoliyatida va kundalik muloqotda ko'p ishlatiladi. Shu sababli ingliz tilini o'rganishga qiziqish va talab ortib bormoqda. Ammo bu tilni o'rganishda ayrim qiyinchiliklar mavjud. Ko'pchilik o'quvchilar ingliz tilidagi so'zlar yozilganidek o'qilmasligida va talaffuzda qiynaladilar. Ba'zi bir so'zlar yozuvda bor bo'lsa ham, talaffuzda eshtilmaydi. Ba'zi harflar esa turli so'zlarda turlicha o'qiladi. Bu holat o'quvchilarga chalkashlik keltirib chiqaradi.

Asosiy qism: Ingliz tili talaffuzi bilan qiyin tillardan biri hisoblanadi. Ingliz tilida atiga 26 ta harf bor, lekin talaffuzda 44 ta tovush ishlatiladi. Shuning uchun ko'p hollarda bitta harf bir nechta tovushni bildiradi. Natijada so'zning yozilishi bilan o'qilishi bir-biriga mos kelmaydi. Masalan, "a" harfi "cat" so'zida bir xil, "cake" so'zida esa butunlay boshqacha o'qiladi. Yana "ough" harf birikmasi "through", "though", "rough", "cough" so'zlarida turlicha talaffuz qilinadi. Shu misollardan ham ko'rinib turibdiki, ingliz tilida aniq talaffuz qoidalari har doim ham ishlatilmaydi. Shu sababli ingliz tili fonetik til hisoblanmaydi. Ingliz tilini o'rganayotganlar esa yangi so'z chiqsa, uning talaffuzini alohida yodlab olishga majbur bo'ladi. Bu esa ingliz tilini o'rganishni qiyinlashtiradi.

Ingliz tilidagi yozuv va talaffuz o'rtasidagi farqning eng muhim sabablaridan biri tilning tarixiy rivojlanishidir. Ingliz tili uzoq tarixga ega. Bu davr mobaynida ingliz talaffuzida katta o'zgarishlar yuz bergan. XV-XVII asrlarda sodir bo'lgan fonetik o'zgarishlar ayniqsa, "Great Vowel Shift" natijasida ko'plab so'zlarning talaffuzi tubdan o'zgargan. Bu jarayonda unli tovushlar talaffuzi o'zgargan bo'lsada, yozuv saqlanib qolgan. Shu sababli so'zlar eski yozuv bilan, yangi talaffuzda qo'llanila boshlagan. Masalan: "knight" so'zi ilgari "k" va "gh" tovushlari bilan talaffuz qilingan. Hozirgi ingliz tilida bu harflar o'qilmaydi. Bu holat ingliz tilida tarixiy imlo tizimi saqlanib qolganini ko'rsatadi. Yozuv tizimi talaffuzdagi o'zgarishlarga moslashtirilmagan, bu esa ingliz tilidagi so'zlarning yozilishi va talaffuzi o'rtasidagi nomuvofiqlik sabablarini kuchaytirgan.

Ingliz tili leksik jihatdan boy til hisoblanadi, u ko'plab tillardan so'zlarni o'zlashtirgan. Xususan, fransuz, lotin, yunon va nemis tillardan kirib kelgan so'zlar ingliz tili lug'at boyligini oshirganiga qaramasdan, talaffuz tizimini murakkablashtirgan. Masalan: yunon tilidan kirgan "psychology" so'zida "p" harfi talaffuz qilinmaydi. Lotin tilidan olingan "debt" so'zidagi "b" harfi yozuvda bo'lsada o'qilmaydi. Fransuz tilidan olingan ko'plab so'zlar ham ingliz tiliga o'ziga xos

talaffuz bilan kirib kelgan. Shu sababi, ingliz tilida yagona va qat'iy talaffuz qoidasi shakllanmagan. Har bir so'zning kirib kelishi uning qanday talaffuz qilinishiga ta'sir ko'rsatgan.

Ingliz tilida "silent letters" hodisasi keng tarqalgan. Bunday harflar yozuvda mavjud bo'lsada, talaffuz qilinmaydi. Bu hodisa ham tarixiy sabablar bilan izohlanadi. Masalan: know, knife so'zlarida "k" harfi, doubt, thumb so'zlarida "b" harfi, calm, talk so'zlarida "l" harfi o'qilmaydi. Bu harflar oldin talaffuz qilingan biroq vaqt o'tishi bilan nutqdan tushib qolgan. Jim harflar ingliz tilini o'rganishda qiyinchilik tug'diradi, chunki o'quvchilar yozuvga qarab noto'g'ri talaffuz qilishlari mumkin.

Ingliz tilida urg'u so'z talaffuziga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bir xil yozilgan so'zlar urg'uga qarab turlicha o'qiladi. Masalan; record so'zi ot sifatida birinchi bo'g'inga urg'u bilan, fe'l sifatida esa ikkinchi bo'g'inga urg'u bilan talaffuz qilinadi. Bu holat ham ingliz tilida yozuv va talaffuz o'rtasidagi farqni kuchaytiruvchi omillardan biri.

Xulosa; Xulosa qilib aytganda, ingliz tilidagi so'zlarning yozilganidek o'qilmasligi bir nechta muhim omillar bilan bog'liq. Bular- fonetik tizimning murakkabligi, tarixiy talaffuz o'zgarishlari, boshqa tillardan olingan so'zlar, jim harflar va urg'uning talaffuzga ta'siridir. Ushbu omillar ingliz tilining o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Shu sababli ingliz tilini o'rganishda so'zlarni faqat yozuviga qarab emas, balki ularning to'g'ri talaffuzi bilan birgalikda o'zlashtirish muhim ahamiyatga ega. Talaffuz ustida muntazam ishlash va fonetik qoidalarga e'tibor berish ingliz tilini samarali va oson o'rganishga yordam beradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Muxammadjonova N, Maxmudova M universal ingliz tili
2. Yusupov U. Ingliz tili fonetikasi.- Toshkent o'qituvchi nashriyoti, 2016
3. Jalolov J. Chet tillarni o'qitish metodikasi.- Toshkent o'qituvchi, 2012
4. Abduazizov A. Tilshunoslikka kirish.- Toshkent; Fan, 2010
5. Rahimov S. Umumiy fonetika asoslari.- Toshkent, 2014